

MAVZU: JINOYAT QONUNCHILIGIDA YARASHUV INSTITUTINING HUQUQIY ASOSLARI

Jasurbek Do'smatov Umidjon o'g'li
Adliya vazirligi qoshidagi
Yuristlar malakasini oshirish markazi
Bosh mutaxassisi

Annotatsiya: Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish tamoyili zamonaviy jinoyat huquqi tizimida insonparvarlik va adolat tamoyillarini ta'minlashning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida yarashuv instituti jinoyat qonunchiliga 2001-yilda kiritilgan bo'lib, u ijtimoiy adolatni tiklash, jabrlanuvchi manfaatlarini himoya qilish hamda sudlanganlik holatlarini kamaytirishga qaratilgan. Bu institutning ahamiyati shundaki, u shaxsga nisbatan jazo tayinlash o'rniga, aybdorning o'z qilmishiga nisbatan yondashuvini o'zgartirishga va jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni bartaraf etishga imkon beradi. Ushbu tezisda yarashuv institutining huquqiy asoslari, uning sud amaliyotida qo'llanilishi, shuningdek, mazkur institutning samaradorligi va duch kelayotgan muammolar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: yarashuv instituti, yarashuv jarayoni, huquqiy monitoring tizimi.

Kirish: O'zbekiston Respublikasining jinoyat qonunchiligidagi yarashuv instituti 2001-yil 29-avgustdagagi "Jinoiy jazolarni liberallashtirish munosabati bilan Jinoyat, Jinoyat-protsessual va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonuni qabul qilinishi bilan paydo bo'lgan. Mazkur qonun jinoyat qonunchiligini insonparvarlik tamoyillariga asoslangan holda isloh qilishga qaratilgan bo'lib, jamiyatda ijtimoiy muvozanatni saqlash, jabrlanuvchilarning manfaatlarini himoya qilish va aybdor shaxslarga qayta ijtimoiylashuv imkoniyatini yaratishga yo'naltirilgan.

Asosiy qism: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 66¹-moddasiga muvofiq, agar shaxs og'ir yoki o'ta og'ir bo'lmasan jinoyat sodir etgan bo'lsa, jabrlanuvchi bilan yarashgan va yetkazilgan zararni qoplagan bo'lsa, u jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin.

Bu institutning qo'llanishi quyidagi shartlar bajarilishini talab qiladi:

- Aybdor shaxs jinoyat sodir etganini tan olishi va jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni qoplashi;
- Jabrlanuvchi aybdor tomonidan jinoiy ta'qibni davom ettirishga ehtiyoj sezmasligi va aybdorni kechirishi;
- Yarashuv tomonlarning ixtiyoriy roziligi asosida amalga oshirilishi;
- Sud tomonidan yarashuv holatining qonuniyligi tekshirilishi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining tegishli qarorlariga muvofiq, yarashuv jarayoni hech qanday bosim yoki majburlashsiz, mutlaqo ixtiyoriylik asosida amalga oshirilishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 62-bobiga muvofiq, yarashuv asosida ish yuritish faqat jabrlanuvchining roziligi bilan amalga oshiriladi. Agar jinoyat ishi bo‘yicha bir nechta jabrlanuvchi bo‘lsa, barcha jabrlanuvchilarning roziligi talab etiladi. Agar ulardan birortasi yarashuvga rozi bo‘lmasa, ish umumiy tartibda ko‘rib chiqiladi.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish to‘g‘risidagi qaror quyidagi organlar tomonidan qabul qilinishi mumkin:

- Surishtiruvchi yoki tergovchi – agar jinoyat ishi sudga yetib bormagan bo‘lsa;
- Prokuror – agar tergov jarayonida jinoyat ishi bo‘yicha yakuniy qaror qabul qilinmagan bo‘lsa;
- Sud – agar jinoyat ishi sudlov jarayoniga yetib kelgan bo‘lsa.

Shuningdek, sud tomonidan yarashuvning haqiqatdan ham sodir bo‘lganligi, uning qonuniyligi va jabrlanuvchining roziligi majburlovsiz berilganligi sinchkovlik bilan tekshirilishi lozim.

Yarashuv natijasida:

- Jinoyat ishi tugatiladi;
- Aybdor shaxs sudlangan deb hisoblanmaydi;
- Jabrlanuvchi kelgusida shu masala bo‘yicha qayta da’vo qo‘zg‘ata olmaydi.

Ba’zi holatlarda, jinoyat sodir etgan shaxslar ushbu institutdan jazodan qochish vositasi sifatida foydalanishga harakat qilishi mumkin.

Sud amaliyoti tahlili shuni ko‘rsatadiki, ayrim jinoyat ishlari bo‘yicha ayblanuvchilar jabrlanuvchilarga bosim o‘tkazish yoki ularni moddiy jihatdan manfaatdor qilish orqali yarashuvga erishishga intilmoqda.

Ba’zan tergov organlari jinoyat ishini tezroq yopish maqsadida yarashuv institutini noto‘g‘ri qo‘llashga harakat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining tegishli qarorlariga binoan, sudlar har bir yarashuv holatini sinchkovlik bilan tekshirishi va uning qonuniyligini ta’minlashi lozim. Yarashuv instituti jinoyat qonunchiligidagi muhim o‘rin tutib, jabrlanuvchining manfaatlarini himoya qilish, jinoyat huquqiy munosabatlarini liberallashtirish va jamiyatdagi ijtimoiyadolatni ta’minlashga xizmat qiladi. Biroq uning samarali ishlashi uchun huquqiy normalarning aniq va izchil qo‘llanilishi ta’minlanishi lozim.

Shu boisdan quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Huquqiy monitoring tizimini joriy etish – yarashuv institutining qo‘llanilishi bo‘yicha muntazam tahlil olib borish va aniqlangan muammolarni bartaraf etish.

2. Sudyalarining malakasini oshirish – yarashuv institutini qo‘llashda yagona yondashuvni ta’minlash maqsadida maxsus o‘quv dasturlarini ishlab chiqish.

3. Jabrlanuvchilarning huquqiy savodxonligini oshirish – ularga yarashuv institutining huquqiy oqibatlarini tushuntirish orqali ularning manfaatlarini himoya qilish.

Xulosa: Yarashuv instituti to‘g‘ri qo‘llanilganda jinoyat huquqiy tizimining insonparvarlik tamoyillariga muvofiq ishlashini ta‘minlaydi va jamiyatda ijtimoiy adolatni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Jinoyat kodeksi.
2. Rustamboyev M.X. Jinoyat huquqi. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – T.: ILM-ZIYO”, - muharrir: y.f.d F.Tohirov. – T.: 2013.
3. Ochilov H.R., Turg‘unboyev E.O. “Jinoyat huquqi” (Umumiyligini qism). O‘quv-uslubiy qo‘llanma //mas’ul muharrir: y.f.d. F.Tohirov. – T.: 2013.